



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-aprel oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5487,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2023 yil yanvar-aprel


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 9,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 8,4 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 38,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2023-yil yanvar-aprel

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	6 529,2	5 091,3	-1 437,9
Sharof Rashidov tumani	2 091,5	3 190,2	1 098,7
Forish tumani	2 921,5	1 414,4	-1 507,1
Jizzax shahri	25 622,1	25 567,0	-55,1
Zafarobod tumani	4 025,1	2 265,1	- 1 760,0

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 66,0 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 8,2 % ni va G‘allaorol tumani 13,1 % ni tashkil etdi.

30,7 %

2022- yil

45,4 %

2023- yil


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-aprel

FHI,% da



2023- yilning yanvar-aprel oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5332,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,2 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-aprel

94,6 %

2023-yil yanvar-aprel

97,2 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 48,1 % (26,1 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 13,8 % (17,1 %) va quyi texnologiyalisi - 35,2 % (51,3 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 46,0 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 180,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,1 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,7 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,7 % (2022- yilning yanvar –aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 129,7%)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti



O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	14 316,4	14 227,7	-88,7
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	21 847,3	6 146,7	-15 699,6
Paxta chigiti, t.	22 716,4	21 263,0	- 1 453,4
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	3 424,3	1 810,5	-1 613,8
Paxta linti, t.	1 067,7	1 278,9	211,2
Trikotaj polotnolar, t.	555,0	1 023,0	468,0

2023- yilning yanvar-aprel oylar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (71,9 % kamaygan), 14,2 ming tonna paxta tolasi (0,6 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 21,3 ming tonna paxta chigiti 6,4 % ga) kamaygani kuzatildi.


Yumshoq bug‘doy va spelta uni
28,1 %
Paxta tolasi, t.
99,4 %
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,8 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 153,2 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 180,7 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 45,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 140,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,9 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 513,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,1 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 417,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 85,3 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 94,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 105,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 101,7 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1103,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 89,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 %, fizik hajm indeksi 137,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 218,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 73,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 130,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 150,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 77,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi 166,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 200,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 89,8 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 127,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 162,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,6 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 28,1 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	78 777,6	54 276,9	-24 500,7
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	3,3	3,9	0,6
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	30 751,5	34 970,7	4 219,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	22 957,4	21 415,6	-1 541,8
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7 416,9	5 642,7	-1 774,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 5,0 % ga, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 20,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3009,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 187,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 54,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil
yanvar-aprel

22,6%

2023-yil
yanvar-aprel

11,1%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil
yanvar-aprel

77,4%

2023-yil
yanvar-aprel

88,9%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 11,1 % (2022- yil yanvar-aprel oylarida 22,6 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 30,2 % ni va Zarbdor tumani 10,9 % ni, Zomin tumani 12,5 % ni hamda Paxtakor tumani 11,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (154,9 %), G'allaorol tumanida (153,1 %) hamda Zafarobod tumanida (146,2 %), qayd etildi.

Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3002 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 834 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,8 % i) Jizzax shahriga, 417 tasi (13,9 %) Sharof Rashidov tumaniga, 342 tasi (11,4 %) G'allaorol tumaniga, 281 tasi (9,4 %) Zomin tumaniga va 192 tasi (6,4 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

